- Алюминий оксиди () – бу турдаги түлдирувчилар, эпоксид ва полиэфир смолалари асосида электр таъсирига чидамли, ўзидан иссиқлик ўтказувчи, ишқаланишга чидамли композициялар олишда кенг қўлланилади. Шунингдек, Бериллий оксиди ҳам юқоридаги каби иссиқлик ўтказувчи композициялар олишда ишлатилади.

- Темир оксидлари - Fe₂O₃ - қизил ва FeO - охра дейилади. Бу оксидлар коррозия ва механик таъсирларга чидамли лок-бүёқлар олишда, полни, тунукларни бўяш учун ишлатилади.

- Рух оксиди - резина саноатида ва пластмасса олишда ишлатилади. Масалан, 1,0% дан, 10,0% гача рух оксиди билан түлдирилган ҳосил қилинган қопламанинг атмосфера таъсирига чидамлилигини бир неча маротаба оширади. Шу боис, Титан диоксиди ҳам шу мақсадда лок-бүёқ олишда кенг қўлланилади.

- Барий сулфат (барит). Бу турдаги түлдирувчилар қоплама юзаларига юқори зичликбериш ишқаланишга чидамлилигини ҳамда кимёвий таъсирларга чидамлиликни ошириш мақсадида қўшилади.

Шу билан бир қаторда, органик асосли маҳсулотларнинг электр ва иссиқликни ўтказмаганлиги сабабли, уларга шу хусусиятларни бериш мақсадида, турли хил металл кукунлари қўшилади. Мисол тариқасида: темир, мис, алюминий, рух ва бошқа металл кукунларини келтириш мумкин.



Қоплама ҳосил қилиш жараёнида базъи олигомерларни тикилган ҳолга ўтиб қотишига ёрдам берувчи моддалар, қотирувчилар деб аталади. Мазкур жараёнларда тезлатгичлар сифатида ҳам металл оксидларидан (MgO ; CaO ; ва бошқалар) фойдаланилди.

Умумий хулоса ўрнида таъкидлаш жоизки, барча соҳаларда бўлгани каби қоплама ҳосил қилувчи материяллар, жумладан: лок-бўёқ саноатида металл оксидларидан фойдаланиш, олинадиган маҳсулотнинг ҳам иқтисодий, ҳам сифат жиҳатдан яхшиланишига олиб келиши кузатишлар давомида ўрганилди. Мисол учун, металл оксидларидан тўлдирувчи сифатида фойдаланилганда, олинадиган маҳсулотнинг тан нархи бир мунча арzonлашади ва шу билан бир каторда, ушбу маҳсулотнинг ўзида комплекс хоссаларни жамлашга эришилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Технология пластических масс. Под.ред. В.В. Коршака. М., «Химия», 1985, с.263-274.
2. Кузнецов Е.В. и др. Альбом технологических схем производства полимеров и пластических масс на их основе. Изд. 2-е. М., Химия, 1975, 74 с.
3. Кисилев Б.А. Стеклопластики. М., химия, 1989, 246 с.



ТУРАР ЖОЙ ВА МАИШИЙ ХЎЖАЛИКЛАРДА ЭНЕРГЕТИК АУДИТ

Соримсоков Учқун Соатбой ўғли
Жиззах Политехника Институти
2-курс магистранти.
Тел: 998911943093
email:uchqunsarimsoqov112@gmail.com

Аннотация: Биноларни ёритишида ва иситишда энергия тежамлаш, Маиший объектларни ёритишини тўғри лойиҳалаш.

Калит сўзлар: Биноларни ёритиши, иситиш тизими, автоматик бошқариш тизими, энергияни тежаш.

Ҳозирги дунёда ишлаб-чиқарилаётган энергиянинг 40% ва барча энергия ресурсларининг 37% уй-жой ва жамоат биноларида ишлатилади. Бинолар энергия истеъмолининг сезиларли улушини (40-60%) ёритиши ташкил этади. Бу мақсадларга бўлган электр энергия сарфини қисқартириш иккита асосий йўл билан мумкин:

Ёритишининг номинал қувватини пасайтириш;

Ёритгичлардан фойдаланиш вақтни камайтириш.

Ёритгичлардан фойдаланиш вақтни камайтириш ёритиши қурилмаларини замонавий бошқариш тузилмаларини, ростлаш ва назорат қилишни татбиқ этиш билан эришилади. Ростланувчи люминесцентли ёритгичларни қўллаш уларни пасайтирилган (номиналга нисбатан) қувватларда ишлатиш имконини беради. Бу шуни кўрсатадики, ёритишининг ўзгармас ўрнатилган қувватида, ҳақиқий истеъмол этилаётган қувват ва энергия истеъмоли пасаяди.


Ёритиши юкламасини бошқариш иккита асосий усул билан амалга оширилади:

Барча ёки бир қисм ёритгичларни ўчириш билан (дискрет бошқариш);

Ёритгичларнинг қувватини равон ўзgartириш (барча учун бир хил ёки якка тартибда).

Дискрет бошқарув тизимида, биринчи навбатда турли сурат релелари (сурат автоматлари) ва таймерларни киритиши мумкин. Биринчиларининг ишлаш принципи ташки ёритилганлик датчиклари сигнали бўйича юкламани ёкиш ва ўчиришга асосланган. Иккинчилари олдиндан киритилган дастур бўйича кеча-кундуз вақтига боғлиқ ҳолда ёритиши юкламасини коммутациялашни амалга оширади. Ёритиши дискрет бошқариш тизимларига ҳозир бўлиш датчиклари билан жиҳозланган автоматлар киради. Улар бинодаги ёритгичларни охирги инсон чиқиб кетганидан кейин маълум вақтдан сўнг ўчирадилар. Бу дискрет бошқаришнинг энг иқтисодий туридир, лекин бунда тез-тез ёкиш ва ўчириш хисобига лампаларнинг хизмат кўрсатиш муддати қисқариши мумкин.

Ёритиши қувватини равон ростлаш тизимининг ишлаш принципи қўйидаги расмда кўрсатилган. Табиий ёруғлик бошланғич даражаси E_1 га мос бўлган t_1 вақт моментида, ёритгичлар қуввати (P) t_2 моментигача равон пасайишни бошлайди, табиий ёруғлик берилган ёритилганликни таъминлаш учун етарли бўлганида (E_0 даражаси) t_3 моментида, кундузги ёруғлик E_1 даражагача яна пасайишни бошлагандан, ёритиши қурилмасининг қувватининг (P) равон ортишни бошлайди.



Ёритиши қувватини равон ростлаш тизимининг ишлаш принципи



Охирги ўн йилларда кўп чет эл фирмалари томонидан ички ёритишни бошқаришни автоматлаштириш учун ускуналар ишлаб чиқариш ўзлаштирилди. Замонавий тизимлар, фойдаланувчи учун максимал қулайлик билан электр энергияни иқтисод қилиш имкониятини ўз ичига олади .

Ёритишни автоматик бошқариш тизимларни иккита асосий синфларга бўлиш мумкин: локал ва марказлашган.

Биноларни ёритишни локал тизимлари конструктив жиҳатдан электр тақсимлагич шитларига тиркалган ёки осилувчи шитлар оралиғига ўрнатиладиган блоклардан иборат. Бундай турдаги тизимлар одатда битта функцияни ёки уларнинг қайд этилган қаторини амалга оширади. Бу функциялар қаторига масалан, хонада инсон борлиги ва табиий ёритилганлик даражасини ҳисобга олиш, ҳамда симсиз масофани бошқариш тизимлари билан ишлаш киради. Локал "ёритгичларни бошқариш тизимлари" кўп ҳолларда кўшимида сим ўтказишни талаб қылмайди баъзида симлар ётқизиши зарурлигини қисқартиради. Конструктив жиҳатдан улар бевосита ёритгичларда ёки битта лампа колбасида маҳкамланган кичик габаритли корпусларда бажарилади.

Ёритишнинг марказлашган бошқариш тизимлари, "интеллектуал" номига тўлиқ жавоб берган ҳолда, кўп сонли ёритгичларни (бир неча юзгача) бир вактда кўп вариантили бошқариш имкониятини таъминлайди. Бундай тизимлар ёруғликни бошқариш ёки биноларнинг бошқа тизимлари билан бирга ишлашда (масалан, телефон тармоғи, хавфсизлик тизимлари, вентиляция, иситиш ва қуёшдан ҳимояловчи тўсиқлар) қўлланилади.

Ҳозирда истеъмолчилар томонидан энергия тежамловчи ёритгичлардан ва ёруғлик техникаси буюмларидан фойдаланиш ривожланмоқда. Яхшиланган истеъмол қилиш сифатларига эга бўлган ҳолда (юқори ёруғлик бериш, спектр бўйича қулай ва чиройли, липилламайдиган ёруғлик ва ҳ.к.), замонавий энергия тежамловчи ёритгичлар иқтисодиётлиги ва ишлатишида ишончлилиги жиҳатдан барча талабларга жавоб беради.

Люминесцентли ёритгичлар;

Галоген ёритгичлар;

Махсус ёритгичлар.

Электрон ишга тушириш – ростлаш аппаратли люминесцентли ёритгичлар (ЭПРА) $\cos\phi > 0,93$ билан осилувчи ва шитли бажаришга эга бўлиб, қуйидаги афзалликларга эга:

-электр магнит ишга тушириш-ростлаш аппаратдан (ЭмПРА) таъминланадиганга нисбатан 30% дан ортиқ электр энергияни иқтисод қилишга ва шунга ўхшаш қиздириш лампага нисбатан оолти карра электр энергияни иқтисод қилиш;

-лампанинг хизмат кўрсатиши муддатини 20% ва ундан ортиқка, қиздириш ипларини (катодларини) равон қиздиришли оптимал режим ҳисобига ошириш;

-кўшимида стартёрсиз, кафолатли зудлик билан улаш ва шовқинсиз ишлаш;

-липилламайдиган, узоқ муддатли юкламада люминесцентли лампаларнинг юқори частотали ишлаши ҳисобига кўзни ҷарчатмайдиган текис ёруғлик;

-стробоскопик ҳодисанинг бўлмаслиги, яъни қандайдир нарса ёки расмни кузатиш узлуксиз эмас, балки айрим бирин кетин даврий равишида, маълум вақт оралиғида, амалга оширилишида ҳосил бўладиган кўришни англаш;

-электр магнит халяқитларининг бўлмаслиги.

Компакт(бежирим) люминесцент лампалар шу каби ёритиш техник тавсифларга эга бўлган қизитиш лампаларига нисбатан 5 марта кам электр энергия истеъмол қиласидилар, уларда хизмат кўрсатиши муддати 8 марта кўп. Акс панжарали ва ёруғликни қайтарадиган ёритгичлар ҳам мавжуд .

Галоген ёритгичларни ўрнатиш усули бўйича, шифтга, деворга ва стол устида ўрнатадиган қилиб чиқарилади ва яшаш, маъмурий биноларни маҳаллий ёритиш,офисларни, иш жойларини, витрина, экспозиция, стендларни ёритиш учун ишлатилади. Улар лампа плафонини шарнир ёрдамида маҳкамлаб хонанинг ҳар қандай берилган зonasини ёритишни таъминлайди.

Ёритгичларда ёруғлик манбаи сифатида оддий қиздириш ипли лампаларга нисбатан қуйидаги қатор афзалликларга эга бўлган, куввати 20 Вт бўлган галоген лампалар қўлланилади:

-электр энергия истеъмолини 2-2,5 баравар пасайтириш;

-хизмат кўрсатиши муддати давомида ёруғлик оқимини мўътадиллиги;



- жуда яхши ранг узатишни таъминлаши ва турли рангли эфектларни ҳосил қилувчи тиник ёруғлик;
- оддий лампаларга нисбатан, хизмат кўрсатиш муддатини 2 марта кўплиги;
- мўъжазлиги.

20 ёки 50 Вт қувватга эга бўлган галоген лампали ИВУ серияли маҳсус ёритгичлар, ёнувчи материалдан иборат бўлган юзага бевосита ўрнатиш учун мўлжалланган, ҳамда ҳовузларда, фаввораларда, аквариумларда, ёнфинга қарши қурилмали биноларда, душларда, кимёвий тозалашларда, боғ участкаларида, автомобилларни саклаш жойларида, йўловчи йўлакларида, нарвонларда, ер ости ўтиш жойларида, машиналарни автоматик ювиш жойларида, устахоналар ва балиқ дўконларида ўрнатиш учун тавсия этилади.

ФБУ ваНБУ серияли ёритгичлар ҳам хона ичларини ёритишни ҳам сувлардан намлиқ, чанг ва тартиб бузувчилардан ҳимоя қилиш талаб этилганда хона (бино) ташқарисини ёритишга мўлжалланган. Бу ёритгичлар механик шикастланишларга, тош ва шунга ўхшаган қаттиқ нарсалар тегишидан ҳимояланган бўлади. Улар боғлар, хиёбонлар, ўтиш жойлари, айвонлар, ҳовузлар, ваннахоналар, ҳожатхоналар ва ҳ.қ.ларни ёритишида тенги йўқ.

Электр энергияни иқтисод қилиш учун ҳар қандай лампалар кўлланилганда, электр энергияни 20 % гача иқтисод қилишни таъминлайдиган, ёритиш асбобларини оптималь жойлаштириш катта аҳамиятга эга. Масалан, бир бинода ишчи ва ёрдамчи зоналар мавжудлигига ишчи зоналарларни умумий локал (ҳар томондан) ёритиш, ёрдамчи зоналарни эса бунга қараганда паст жадаллик билан ёритиш кўзда тутилади. Цехларни, омборларни ва бошқа ишлаб чиқариш хоналарни ёритишида, энг яхши усул –бу ёғду таралиш линиялари ускуналаридир. Ҳар қандай ёритиш тизимини лойихалаётганда ва татбиқ этаётганда кўриш мухитини таъминлайдиган қўйидаги санитар нормаларни таъминлаш зарур:

- 400-500 лк;
- ёруғликнинг табиий ёритилганликка максимал яқинлаштирилган спектрал таркиби;
- ёруғликнинг пульсацияси ва кўр қилувчи харакати бўлмаслиги;
- ёруғликни бир текис тақсимланиши.

Кўчалар, майдонлар, тезюарар магистралларни, транспорт кесишадиган жойларни, чўзилган тоннелларни, спорт иншоотларини, аэродромларни, қурилиш жойларини, архитектура иншоотларини, вокзалларни, аэропортларни ёритиш учун иқтисодли манбаалардан бири, барча маълум газ разрядловчи лампалар орасида юқори ёритишга эга бўлган ва узоқ муддатга хизмат қилганда ёруғлик оқимини унча катта бўлмаган пасайишга эга бўлмаган юқори босимли натрийли лампалардир.

Натрийли лампаларнинг яна бир қўлланиш соҳаси – бу иссиқхоналардаги ўсимликларни нурлантириш. Иссиқхонадаги қўпчилик ўсимликларнинг нурланиши яхши натижага берганлиги туфайли натрийли лампалар симобли ва металлогенли, юқори босимли лампаларни алмаштириш мумкин. Симобли лампалардан фарқли ўлароқ натрийли лампаларда симоб йўқ, бу эса уларнинг қўлланиш соҳасини кенгайтиради. Уларнинг ишини иқтисодийлик нуқтai назаридан солиштирганда, 10000 соат мобайнида 30 % гача иқтисодни ташкил этади, ўз-ўзини қоплаш муддати тахминан кунига 12 соатни(ёзги вактда 8 соат ва қишида 16 соат) фойдаланишдан келиб чиқсан ҳолда 2 ойга яқинни ташкил этади.

Уйларда электр энергиядан фойдаланишни шартли равища тўрт гурухга бўлиш мумкин: хоналарни иситиш;-совутиш ва музлатиш;-ёритиш;кирларни ва идиш товоқларни (кир ювиш машиналари ва идиш-товоқ ювиш машиналари ёрдамида) ювиш.

Рўзгорда энергия тежамлаш ўз уйингиз хонасидан бошланади. Авваламбор мавжуд материаллар билан эшик ва ромларнинг тирқишиларини ёпиб иситиш керак; дераза ва балкон эшикларига қалин пардаларни шундай осиш керакки, радиаторни ёпиб қўймасин ва иссиқлик айланишига халакит бермасин; ойналарга қўшимча полиэтилен плёнкалар тутиб қўйиш керак; ҳожатхона ва ошхона шамоллатиш тирқишиларини яримигача ёпиб қўйиш керак, ҳамда тутун чиққични картон ёки қалин қоғоз билан ёпиш керак.

Кўп иссиқлик девор ва баъзида очиладиган деразалар орқали радиатордан чиқиб кетади. Бу йўқотишларни ялтироқ пленкадан, алюмин зар қоғоз ёки руҳланган тунукадан, фанерга ёпиштирилган картондан акс эттирувчи экран ясад, радиатор орқасига қўйиб қўйиш ва шу билан йўқотишларни камайтириш мумкин. Хоналарда ҳароратни ростлашнинг энг яхши усули, бу радиаторларда жўмрак ва ҳарорат ростлагичларини ўрнатишдир. Рўзгорда электр энергияни иқтисод қилишнинг бошқа чоралари қўйидагилардир.



ҳаёт қулайликларига халақит бермаган ҳолда, керак бўлмаган жойларда чироқни ўчириш ва бу одатни барча оила аъзоларига сингдириш;

Имконияти борича қизитиш лампаларини, шу ёруғликни энергияни 70-80 % кам ишлатиб таъминлайдиган энергия тежамкор лампалар билан алмаштириш. Бунда улар 5-6 марта узок ҳам ёнади;

Айрим жойларда талаб этиладиган ёруғлик микдорига боғлиқ ҳолда, турли қувватдаги лампаларни ўрнатиш. Шуни билиб қўйиш керакки, лампалар ва плафонлар ифлосланганда хонадаги ёритилганлик 10-15% га пасаяди;

Масофавий бошқариш кўзда тутилган электр асбобларни(телефизор, радио, телефон) нафақат кечаси, балки бошқа фойдаланилмаётган даврда ҳам (уидан чиқиб кетиш, танаффус ва ҳ.к) ўчириб қўйиш керак, чунки улар электр тармоққа уланиб турган пайтда электр энергия истеъмол қиласди;

Кир ювиш машинасини иложи борича кичик ҳароратга созлаб тўла юкламада ишлатиш. Шуни эсда тутиш керакки 90⁰ С ҳароратда кир ювиш 40⁰ С ҳароратдагига қараганда 3 марта кўп энергияни талаб қиласди. Чунки кир ювиш воситаси 40⁰ С ҳароратда тезда эрийди ва кирга фаол таъсир қиласди;

Ёритиш кичкина вақт оралиғида талаб этиладиган жойларда автомат ўчиргичларни ўрнатиш, масалан, кўп хонали уйларнинг зинапоялари майдончаларида, якка турадиган бир хонали уйларнинг олд томонига чиқиши жойларида.

Электр рўзгор асбобларини сотиб олаётганда биринчи навбатда нафақат нархини, балки энергия тежамлаш параметрлари билан ҳам қизиқиши керак, фақат фойдаланишдаги сарфларни, нархлар билан таққослаб, керакли электр рўзгор товарларини сотиб олиш имкони тўғрисида қарор қабул қилиш мақсадга мувофиқ.

Турар жойларни иситишда фойдаланилдиган электр энергияни иқтисод қилишдаги муҳим момент, бу хонадон ва уйларнинг балконлари, эшиклари, ромларини ишончли иситиш ҳисобланади. Энг оддий ва тез усул – газеталардан турбка шаклида ўралган қофозни ром ва дераза тирқишлирига тиқиб қўйиш. Бу усул деразаларда тирқишилар кам бўлганда ва кучли совуқларда яхши самара беради.

Деразаларни совуқ киришидан сақлашнинг ишончли усули, бу бўр пастаси ва ундан тайёрланган елим. Нисбати 1:1 бўлиб бу компонентлардан тайёрланган паста билан барча тирқиши ва тешикларни тўлдириб чиқиши керак. Агарда ромлар эски бўлса у ҳолда бу компонентларда клейни камайтириб (3:1 ёки 4:1) тешиклар ёпилади, бунинг учун дераза очилиб паста сурилгандан сўнг дераза ёпилади ва тирқишилардан эзилиб чиқиб қолган ортиқча пастани дарров олиб ташланади.

Кириш эшиклари ва ёндори орасидаги тирқишиларни аптеканинг резинали турбкаси ёндорига майда михлар билан қоқиб чиқилиб зичлаштириш мумкин. Агарда тирқиши катта бўлса битта турбкани эшикка, биттасини эса косякка михланади.

Балкон эшигини безак берилган матодан тайёрланган пахтали гиламча билан иситиш мумкин. Унинг ўлчамларини шундай танланадики, у эшикни ён ва паст тирқишиларини беркитиб турсин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Аллаев К.Р. Электроэнергетика Узбекистана и мира, – Т.: «Fan va texnologiya», 2009, 463 с.
2. Аллаев К.Р., Хошимов Ф.А. Энергосбережения и промышленных предприятиях, Фан 2012.
3. Ўзбекистон Республикасини «Энергиядан рационал фойдаланиш хақидаги» қонуни 29 апрел 1997йил
4. Блинов Ю.И., Васильев А.С., Никаноров А.Н. и др. Современные энергосберегающие электротехнологии. Учебное пособие. Издательство СПбГЭТУ «ЛЕТИ», 2008.-564 с.: ил.
5. Б.М.Тешабоев «Вопросы управления спроса на электрическую энергию и электроснабжение» Вестник ТДТУ №1.
6. Ресурсосбережение - важнейший элемент повышение эффективности энергетического комплекса. Ташкент ТашПИ, 1986 г.

Электрон ресурслар

Сайт: www.energosoyuz.spb.ru

Сайт: www.anares.ru/oik

Сайт: www.rtsoft.ru



МЕХНАТ ТА`ЛИМИНИНГ ДИДАКТИК ТАМОЙИЛЛАРИ

X.Jalolova.

Navoiy viloyat Qiziltepa tumaniga
qarashli 36 umumiy o`rtta ta`lim
maktabi Texnologiya fani o`qituvchisi

Didaktika xususiy m etodikalar bilan bog`langan holda barcha o`quv fanlari uchun um um iy qonun va qoidalarni belgilab beradi, ya`ni tarbiya bilan cham barchas bog`liq ta `lim jarayonini tashkil etishga asos bo`ladigan yetakchi qoidalarni didaktik qoidalarni deyiladi. Bu o`qituvchilarining faoliyatini, o`quvchilarning bilim faoliyatini, xususiyatini belgilaydigan asosiy qoidalarni hisoblanadi.

Didaktik talablar mehnatning ta`lim-tarbiyaviy vazifalarini nazariy jihatdan to`g`ri bajarilishini ta`minlaydi. Mehnat ta`limini o`qitish metodikasi didaktikaning xususiy tarmog`i bo`lib, mehnat ta`limining ta`lim-tarbiya nazariyasi, ya`ni maqsadlari, mazmuni, qonunlari, tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug`ullanadigan fan hisoblanadi. Shu bilan birga u pedagogik texnologiyaning didaktik asosi, uning mehnat, ta`lim-tarbiya, qoida tamoyillariga muvofiqligini belgilaydi.

Mehnat ta`limini didaktik jihatdan to`g`ri bo`lishi uning yuqori samaradorligining zaruriv sharoiti hisoblanadi. Buning uchun zamonaviy mehnat ta`limida didaktikaning ilmiy xulosalaridan ijodiy foydalanish talab qilinadi.

Mehnat ta`limida qo`llaniladigan asosiy didaktik tamoyillarni o`rganilar ekan, uning o`zi nimadan iborat ekanini oydinlashtirish zarur. Didaktika tamoyillari deganda ta`limning yagona didaktik aniq asosga ega tamoyillarining ijtimoiy taraqqiyot ta lablariga javob berishi tushuniladi, psixologiyadan olingen tadqiqot ma`lumotlari ilg`or pedagogika tajribalarini hisobga oladi.

Mehnat ta`limi tamoyillarini bayon qilishda ularni juftlab o`rganish tamoyilini to`g`ri deb hisoblash kerak. Shunday qilinganda mehnat ta`limi didaktikasining ayrim tamoyillari o`rtasidagi muayyan obyekti mavjud aloqani ko`rsatishga imkoniyat tug`iladi.

Chunonchi, mehnat ta`limining onglilik, izchillik, faollik, ta`lim berishning puxtaligi kabi didaktik tamoyillariga alohida ta`rif berganda, ular o`rtasidagi ta`sir qiladigan aloqani belgilab bo`lmaydi. Aksincha, agar mehnat ta`limining didaktik tamoyillari juft tarzda ularning asosiy qoidalarning birligi nuqtayi nazaridan ko`rib chiqilsa u holda mazkur tamoyillarning tizimi quyidagicha bo`lishi mumkin:

- mehnat ta`limining ongliligi va faolligi, muntazamligi va abstrakligi o`quv tarbiya maqsadlariga qaratilgan. Unumli mehnat asosida ta`lim berishda mehnat ta`limi o`qituvchisi shuni unutmasligi kerakki, o`quv ustaxonalaridagi amaliy mashg`ulotdagagi harakatda yuqorida sanab o`tilgan mehnat tamoyillaridan bitta yoki bir nechta bo`ladi.

Mehnat ta`limi tamoyillarining umumiy tavsiynomasi.

Mehnat va kasb ta`limi tamoyillari ta`lim berish nazariyasining boshlang`ich qoidalari bo`lib, ular o`quv ishlarining mazmunini, uning tashkiliy shakkalarini va o`qituvchi mehnat darsini tayyorlash va o`tkazish vaqtida amal qilishi lozim bo`lgan metodlarni belgilab beradi.

Mehnatta`limining asosiy tamoyillari tarbiya maqsadlaridan kelib chiqadi va ta`lim jarayonining qonuniyatlariga asoslanadi.

Mehnat — politexnik ta`lim o`quvchilarini tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan o`ziga xos xususiyatlariga ega. Mehnat ta`limi tamoyillarini bayon qilishda ularning juftlashib o`rganish tamoyilini to`g`ri hisoblash kerak. Shunday qilinganda, mehnat ta`lim didaktikasining ayrim tamoyillari o`rtasidagi muayyan obyekti aloqani ko`rsatish imkoniyati tug`iladi. Chunonchi, mehnat ta`limining onglilik, izchillik, faollik kabi ta`lim berishning didaktik tamoyillariga alohida ta`rif berganda ular o`rtasida o`zar o`sish qiladigan aloqani belgilab bo`lmaydi. Aksincha, agar mehnat ta`limining tamoyillarini juft tarzda ularning asosiy qoidalarni birligi nuqtayi nazaridan ko`rib chiqilsa, u holda mazkur tamoyillarning tizimi quyidagicha bo`lishi mumkin:

- mehnat ta`limining ilmiyligi, bu ta`limning ongliligi va faolligi, muntazamligi va puxtaligi;

- mehnat ta`limining ko`rgazmaliligi va abstraktligi o`quv tarbiya maqsadlariga qaratilgan unumli mehnat asosida ta`lim berish, mehnat ta`limining tushunarligi.

Mehnat ta`limi o`qituvchisi shuni unutmasligi kerakki, o`quv ustaxonalaridagi har qanday amaliy mashg`ulotda yuqorida sanab o`tilgan mehnat ta`limi tamoyillaridan bitta yoki ikkitasi



emas balki o`quvchilarga o`quv materiallarini sifatli va to`la yetkazib berish imkonini beradigan didaktikaning butun tizimiga amal qilinadi. Mehnat ta`limi o`qituvchisining didaktik tamoyillardan mohirona foydalana bilishi ularni bir-biriga to`g`ri bog`lab olib borishida namoyon bo`ladi.

O`qituvchi faqat o`qitishning qonuniyatlarini bilishigina emas, balki ularni amalga oshirish uchun qulay sharoitlarni yaratib bera olishi ham muhim. Bunga ayrim vetakchi boshlang`ich qonuniyatlarini chuqur tushunish va ularni o`quv jarayonida qo`llash orqali erishiladi. Bunday qonuniyatlar didaktikada ta`lim tamoyillari yoki didaktik tamovillar deb nom olgan.

Mehnat ta`limining quyidagi tamoyillari mavjud:

- 1 Ta`lim va tarbiya birligi.
- 2 Ta`l imning ilmiyligi va politexnik xususiyatga egaligi.
- 3 Ta`limda tizimlilik va izchillik.
- 4 Nazariya va amaliyot birligi.
- 5 Yosh individual xususiyatlarini hisobga olish.
- 6 Onglilik va faollik .
- 8 Ta`limda ko`rsatmalilik.
- 9 Bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirishning mustahkamligi va puxtaligi.



METALL VA UNING QOTISHMALARI, TASHQI KO'RINISHI VA O'ZIGA XOS BELGILARI

Kulmanova Zamira Raxmatullayevna,
Navoiy viloyati Karmana tumani
8-umumiy o'rta ta'lif matabining texnologiya fani o'qituvchisi

Ushbu maqola texnologiya darslarida o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqildi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz ta'lif tizimi oldidagi muhim vazifalaridan biri - o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lif tarbiya berishning yangi samarali usullarini yaratish, o'quvchilarning bilim darajalariga bo'lgan talabni oshirish, o'qitishning rejalishtirilgan natijalariga erishish hisoblanadi. So'ngi yillardamaktab tizimidashiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol usullari ta'lif beruvchi tomonidano zlashtirilib va qo'llanilib borishi ta'lif mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida "AKTYOR" emas, aksincha "REJISSYOR" bo'lishi kerakligini anglashi lozim.

O'qituvchi o'zi o'quvchilarni fanga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashlaarini tashkil qilish, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirish va albatta yangi pedagogiktexnalogiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etish kerak. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta'lif usullaridan foydalanish kerak.

Metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Bu usullar bilan o'quvchilarning ma'naviy barkamol, aqliy salohiyati yuqori, mustaqil va erkin fikrlovchi, ijodkor bo'lib shakillanishida pedagogik innovatsiyalarni qo'llash, integrativ jarayonga asoslanish, interfaol metodlardan foydalanish kerak.

O'quvchilar bilimini nazorat qilish bu – ta'lif jarayonining eng muhim va o'qituvchidan katta mahorat va ijodkorlik talab etadigan tarkibiy qismi hisoblanadi. O'qituvchi mohirlilik bilan o'quvchilar bilimini nazorat qilishning vaqtini to'g'ri belgilashi, nazoratning turli usullaridan foydalangan holda o'quvchilarning butun dars davomida samarali ishlashini ta'minlay olishi kerak. Darsda natijaga erishish uchun kompyuter bilan ishlash lozim, mavzuga oid texnologik film, tarqatma material, har xil o'yinlar, interfaol metodlardan foydalanish lozim.

Ikki yoki undan ortiq metallning suyuq holatdagi bir jinsli aralashmasi yoki bu aralashmadan hosil bo'lgan mahsulot qotishma deb ataladi

Qotishmalarning xossalari sof metallarning xossalardan yaxshiroq bo'ladi. Shuning uchun qotishmalar mashina detallari va umuman, konstruksion materiallar uchun asosiy xomashyo hisoblanadi.

Bitta metal bilan metal xususiyatlariga ega bo'lgan ikki yoki undan ortiqmahsulot qorishmasi metall qorishma deyiladi.

"Assotsiatsiyalar" usuli: O'quvchilarning har bir guruhiba bo'lajak mavzuni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan so'z yoki gap yozilgan plakat beriladi. Uning quyiga o'quvchilar ana shu so'z yoki gap ularning ko'zlarini oldida gavdalantiradigan tasavvurlarini yozib qo'yadilar. Masalan: plakatda vertikal yo'naliш bo'yicha tanlangan mavzu bilan bog'liq bo'lgan tushuncha yoziladi. Ushbu so'zning har bir harfiga ishtirokchilar o'z tasavvurlarini bayon qiladilar va yozadilar. Masalan:

M – muammo, muloqot, mantiq.

U – uddalamoq, uzlucksiz, uyg'unlashtirmoq....

N – nazariya, najot, navbahor, nafosat...

O – oqilonalik, omil, omma, ong...

Z – zimma, zukko, zamon, zarar, ziynat...

A – axborot, agrotexnika, ajoyibot, avaylash...

R – reja, ravnaq, rag'bat, raqam, rahnamo...

A – ahamiyat, ahvol, aql, ahillik, afzallik...



Turli guruhlarda bo'lajak mavzuni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan har xil so'zlar bo'lgani maqsadga muvofiqdir. Barcha plakatlar ilib qo'yiladi, o'qib eshittiriladi, lekin izohlab berilmaydi.

Afzalliklari: Mulohaza yuritish jarayoniga barcha o'quvchilar fikrini jalb qilish, ishtirokchilarning emosional holati.

"G'oyaviy charxpalak" usuli

1. Kichik guruhning (4-5 kishidan iborat) har bir ishtirokchisiga toza oq varaq beriladi va bir xil savol beriladi (zarur bo'lganda o'qituvchi guruhning har bir ishtirokchisi uchun turli savollarni tayyorlashi va taklif qilishi mumkin). Barcha ishtirokchilar og'zaki fikr almashmasdan, o'zlarining varaqlarida savollarga bo'lgan javoblarning o'z-o'zidan aqlga kelib qoladigan ifodalarini yozadilar. Masalan: Metallar 1.Qora metallar 2.Raqngli metallar misollar yozadilar

2. Ifodalar yozilgan varaqlar vaqt tanqisligi sababli soat millarining harakatlanishi bo'yicha kichik guruhdagi qo'shnilariga uzatiladi. Bunday varaqni olgandan so'ng har bir ishtirokchi varaqda mavjud yozuvlarni takrorlamasdan, yangi yozuv kiritishi lozim. Har bir ishtirokchining varag'i yana o'ziga qaytib kelgandan so'ng ish yakunlanadi. Ushbu bosqichda yozuvlar tahlil qilinmaydi, baholanmaydi va tanlab olinmaydi (ushbu uslubiyatning «aqliy hujum» bilan ayrim o'xshashligi ana shunda namoyon bo'ladi). Masalan: Temir, cho'yan, po'latning xossalari yozadilar. Rang li metall turlarini yozadilar.

3. Kichik guruhlarda ishtirokchilar tomonidan ifodalangan javoblar va takliflarning muhokamasi o'tkazilib, ularning eng muhimlari va dolzarblari yakuniy ro'yxatga kiritiladi. O'quvchilar og'ir, yengil, qimmatbaho va nodir metallarga misollar yozadilar


4. Kichik guruhlar ishlanmalarining natijalari bilan almashish. Barcha kichik guruhlar navbatma-navbat yakuniy ro'yxatdan o'z ifodalarini taklif etadilar. Agar bu ifoda yuzasidan boshqa guruhlar e'tiroz bildirmasalar u oxirgi ro'yxatga kiritiladi. Agarda yana qo'shimcha metallar nomini bilsalar yozadilar.

Afzalliklari: taklif etilgan masalalarni izchil muhokama qilishni tashkil etish, so'ng jamoa bo'lib qarorni qabul qilish; bilimlarni dolzarblashtirish va mavjud tajribani aniqlash.

Qiyinchiliklari: Agar ishtirokchilardan biri ushbu mavzu bo'yicha yaxshi tayyorlanmagan bo'lsa, u butun jarayonni to'xtatib qolishi mumkin. Mazkur vaziyatda o'quvchiga muhokama etilayotgan masalalar bo'yicha darslikdan yoki boshqa adabiyotdan foydalanishga ruxsat berish mumkin, lekin bu uning bahosiga albatta ta'sir ko'rsatishi to'g'risida ogohlantirib qo'yish kerak.

"Kungaboqar" usuli

O'quvchilar 4-5 kishidan iborat guruhlarga bo'linadi. O'qituvchi fanning mavzusidan kelib chiqib, o'rtaqa bitta muammoni tashlaydi. Har bir guruh kungaboqar yasab, uning markaziga doira joylashtirib, barglar yopishtiradi. Mavzuga qarab, doiraga har bir guruhga yoki umumiylar bitta muammo yozilib, doskaga yopishtiriladi Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlarini bargga yozib, uni o'sha guruh muammosi yozilgan gulga joylashtirib qo'yadilar. Bu uslubdan o'tilgan mavzuni tushuntirish, uni mustahkamlash va takrorlash hamda talabalar egallagan bilimlarni aniqlashda foydalanish mumkin.





O'qituvchi ushbu usullar yordamida darsni tashkil qilsa, dars davomida o'quvchilar diqqatini jalg qilib, dars o'rganish jarayonini osonlashtiradi. Fanga bo'lgan qiziqishi yanada ortadi. O'quvchi texnologiya fanini intizorlik bilan kutadi. Har darsda o'qituvchidan yana yangilik kutadi. O'quvchilarda fikrlash, tezkorlik, jozibalik, hozirjavoblik qobiliyatini rivojlantiradi. Intellektual salohiyatini oshiradi. Dars jarayonini mukammallashtirib o'quvchilar bilim, ko'nikma, malakasini oshiradi.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Texnologiya fanidan uzviy lashtirilgan o'quv dasturi bo'yicha metodik tavsiya
2. O'zbekiston respublikasi xalq ta'lim vazirligi umumiy o'rta ta'lim maktabning 5-9-sinflar uchun darslik Z. Sattorova, N. Abdusalomova, N. Ahmedova Sh.S.Sharipov, I. Karimov D. Azokirova
3. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A "Pedagogik texnologiya asoslari"
4. Boboyorov M, Boynazarov F "Yangi pedagogik texnologiya asoslari"

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(16-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000